

UDK: 37.013.73

**INTEGRATIV-METODIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHISINING KASBIY QIYOFASINI SHAKLLANTIRISH****Radjapova Feruza Abdullayevna,**

Urganch davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti dekani,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-2381-70000>e-mail: [radjapovaferuza900@gmail.com](mailto:radjapovaferuza900@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining pedagogik madaniyatini rivojlantirishda integrativ-metodik yondashuvning nazariy asoslari yoritiladi. Pedagogik madaniyat ko‘p qatlamli va integrativ hodisa sifatida talqin qilinib, uni shakllantirish jarayoni funksional differensiasiya, strukturaviy integratsiya va dinamik uyg‘unlik bosqichlari asosida tizimlashtiriladi. Maqolada aksiologik, kompetensiyaviy, kommunikativ, refleksiv hamda raqamli-didaktik yondashuvlarning o‘zaro bog‘liqligi ochib beriladi. Tadqiqot natijasida pedagogik madaniyatni kompleks rivojlantirishga xizmat qiluvchi konseptual model taklif etiladi.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik madaniyat, integrativ-metodik yondashuv, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi, kompetensiyaviy yondashuv, aksiologik yondashuv, refleksiv faoliyat, raqamli ta‘lim, kasbiy kompetensiya.

**Аннотация.** В данной статье освещаются теоретические основы интегративно-методического подхода к развитию педагогической культуры будущих учителей английского языка. Педагогическая культура трактуется как многослойный и интегративный феномен, а процесс ее формирования систематизируется на основе этапов функциональной дифференциации, структурной интеграции и динамической гармонии. В статье раскрывается взаимосвязь аксиологического, компетентностного, коммуникативного, рефлексивного и цифродидактического подходов. В результате исследования предлагается концептуальная модель, способствующая комплексному развитию педагогической культуры.

**Ключевые слова:** педагогическая культура, интегративно-методический подход, будущий учитель английского языка, компетентностный подход, аксиологический подход, рефлексивная деятельность, цифровое образование, профессиональная компетенция.

**Abstract.** This article highlights the theoretical foundations of the integrative-methodological approach in developing the pedagogical culture of future English teachers. Pedagogical culture is interpreted as a multi-layered and integrative phenomenon, and the process of its formation is systematized based on the stages of functional differentiation, structural integration, and dynamic harmony. The article reveals the interconnectedness of axiological, competence-based, communicative, reflexive, and digital-didactic approaches. As a result of the study, a conceptual model is proposed that serves the comprehensive development of pedagogical culture.

**Keywords:** pedagogical culture, integrative-methodological approach, future English teacher, competence-based approach, axiological approach, reflexive activity, digital education, professional competence.

**Kirish.** Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining pedagogik madaniyatini rivojlantirish masalasi ko‘p qirrali bo‘lib, u alohida yondashuvlarning bir yoqlama qo‘llanishi bilan to‘liq hal bo‘lmaydi. Shu sababli zamonaviy didaktik tadqiqotlarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish jarayoni integrativ-metodik yondashuv asosida tushuntiriladi. Integrativ yondashuvning mohiyati shundaki, u kasbiy tayyorgarlikning turli komponentlarini -

metodik bilim, kommunikativ ko'nikma, refleksiv tafakkur, tarbiyaviy qadriyatlar va innovatsion fikrlashni yagona pedagogik tizimda birlashtiradi.

Integrativ yondashuv pedagogik madaniyatni o'qituvchining "kasbiy qiyofasi" sifatida shakllantirishni nazarda tutadi. Bunda o'qituvchining metodik faoliyati, axloqiy pozitsiyasi va kommunikativ madaniyati o'zaro uyg'unlashib, ta'lim jarayonining samaradorligiga xizmat qiladi. Bu holat pedagogik jarayonni faqat dars metodikasiga tayangan holda emas, balki tarbiya, shaxs rivoji, ijtimoiy munosabat va qadriyatlar bilan uzviy bog'langan fenomen sifatida tushunishni talab qiladi.

Integrativ-metodik yondashuv ingliz tili ta'limi uchun ayniqsa dolzarbdir. Chunki ingliz tili fani mazmunan faqat lingvistik tizim emas, balki madaniyatlararo muloqot, global kommunikatsiya va ijtimoiy hamkorlik jarayonlarini o'zida aks ettiradi. Demak, ingliz tili o'qituvchisining pedagogik madaniyati ham faqat metodik ko'rsatmalar bilan chegaralanmaydi, balki u shaxslararo muloqot etikasi, tolerantlik, demokratik fikrlash, didaktik moslashuvchanlik va kreativ yondashuv orqali shakllanadi.

Integrativ yondashuvning metodik mexanizmlaridan biri - o'quv jarayonini interdisiplinar asosda tashkil etishdir. Bu jarayonda til o'qitish metodikasi pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va raqamli ta'lim texnologiyalari bilan bog'lanadi. Shunday integratsiya natijasida bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi o'z kasbiy faoliyatiga kengroq nazar bilan qarashni o'rganadi, dars jarayonida talabalar shaxsiga ta'sir ko'rsatishning pedagogik mexanizmlarini anglaydi hamda metodik tanlovlarni ongli amalga oshiradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Shu o'rinda N.V. Kuzmina o'qituvchi kasbiy faoliyatining samaradorligi tasodifiy ko'nikmalar yig'indisi bilan emas, balki pedagogik jarayonning tizimli tashkil etilishi bilan belgilanadi, degan fikrni ilgari suradi. Uning nazariyasiga ko'ra, pedagogning professional kompetensiyasi bir necha tarkibiy omillar - metodik tayyorgarlik, psixologik sezgirlik, kommunikativ mahorat va tashkiliy qobiliyatlarning o'zaro integratsiyasi asosida shakllanadi [1]. Bu yondashuv o'qituvchini faqat bilim beruvchi mutaxassis sifatida emas, balki murakkab pedagogik tizimni boshqaruvchi subyekt sifatida talqin etadi. Integrativ-metodik yondashuvning asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

**Birinchidan**, u o'qituvchining kasbiy faoliyatini faqat "dars o'tish" jarayoni sifatida emas, balki pedagogik madaniyatni ifodalovchi kasbiy tizim sifatida talqin qiladi. Bu tizimda didaktik maqsad, tarbiyaviy vazifa, kommunikativ ta'sir va metodik yechimlar o'zaro uyg'unlashadi.

**Ikkinchidan**, integrativ yondashuv o'qituvchining metodik qarorlarini faqat ilmiy asos bilan emas, balki qadriyatli va etik me'yorlar bilan ham belgilaydi. Bu holatda pedagogik madaniyat o'qituvchining kasbiy pozitsiyasini mustahkamlovchi asosiy mezonga aylanadi.

**Uchinchidan**, integrativ yondashuv reflektiv faoliyatni kuchaytiradi. O'qituvchi o'z darslarini tahlil qiladi, metodik muammolarni aniqlaydi, kommunikativ xatolarni tuzatadi va o'z pedagogik uslubini takomillashtiradi. D.Schönning reflektiv amaliyot nazariyasida ham professional rivojlanish refleksiya orqali amalga oshishi alohida ta'kidlanadi.

Shunday qilib, integrativ-metodik yondashuv bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik madaniyatini rivojlantirishda eng samarali nazariy asoslardan biri sifatida namoyon bo'ladi. U pedagogik madaniyatni kompleks va tizimli rivojlantirish imkonini yaratadi [2].

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik madaniyatini rivojlantirish masalasi ko'p qirrali bo'lib, u alohida yondashuvlarning bir yoqlama qo'llanishi bilan to'liq hal bo'lmaydi. Shu sababli zamonaviy didaktik tadqiqotlarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish jarayoni integrativ-metodik yondashuv asosida tushuntiriladi. Integrativ yondashuvning mohiyati shundaki, u kasbiy tayyorgarlikning turli komponentlarini - metodik bilim, kommunikativ ko'nikma, reflektiv tafakkur, tarbiyaviy qadriyatlar va innovatsion fikrlashni yagona pedagogik tizimda birlashtiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Integrativ yondashuv pedagogik madaniyatni o'qituvchining "kasbiy qiyofasi" sifatida shakllantirishni nazarda tutadi. Bunda o'qituvchining metodik faoliyati, axloqiy pozitsiyasi va kommunikativ madaniyati o'zaro uyg'unlashib, ta'lim jarayonining samaradorligiga xizmat qiladi. Bu holat pedagogik jarayonni faqat dars metodikasiga tayangan holda emas, balki tarbiya, shaxs rivoji, ijtimoiy munosabat va qadriyatlar bilan uzviy bog'langan fenomen sifatida tushunishni talab qiladi.

Integrativ-metodik yondashuv ingliz tili ta'limi uchun ayniqsa dolzarbdir. Chunki ingliz tili fani mazmunan faqat lingvistik tizim emas, balki madaniyatlararo muloqot, global kommunikatsiya va ijtimoiy hamkorlik jarayonlarini o'zida aks ettiradi. Demak, ingliz tili o'qituvchisining pedagogik madaniyati ham faqat metodik ko'rsatmalar bilan chegaralanmaydi, balki u shaxslararo muloqot etikasi, tolerantlik, demokratik fikrlash, didaktik moslashuvchanlik va kreativ yondashuv orqali shakllanadi.

Integrativ yondashuvning metodik mexanizmlaridan biri - o'quv jarayonini interdisiplinar asosda tashkil etishdir. Bu jarayonda til o'qitish metodikasi pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va raqamli ta'lim texnologiyalari bilan bog'lanadi. Shunday integratsiya natijasida bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi o'z kasbiy faoliyatiga kengroq nazar bilan qarashni o'rganadi, dars jarayonida talabalar shaxsiga ta'sir ko'rsatishning pedagogik mexanizmlarini anglaydi hamda metodik tanlovlarni ongli amalga oshiradi.

**Tahlillar va natijalar.** Shu o'rinda N.V.Kuzmina o'qituvchi kasbiy faoliyatining samaradorligi pedagogik jarayonning tizimli tashkil etilishiga bevosita bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, pedagogik faoliyatning yuqori natijadorligi alohida metod yoki usul bilan emas, balki maqsad, mazmun, metod, vosita va natija komponentlarining o'zaro

muvoqilashirilgan tizimi orqali ta'minlanadi. Shuningdek, u pedagog shaxsining kasbiy kompetensiyasi bir yoqlama tayyorgarlik mahsuli emasligini, balki didaktik bilimlar, psixologik sezgirlik, kommunikativ mahorat, tashkiliy qobiliyat va reflektiv tajribaning integratsiyasi asosida shakllanishini asoslab beradi [3]. Mazkur nazariy yondashuv pedagogik madaniyatni rivojlantirishda tizimlilik tamoyilining ahamiyatini kuchaytiradi.

Chunki o'qituvchining kasbiy yetukligi turli kompetensiyalar o'zaro uyg'unlashganida barqaror tus oladi [4]. Demak, pedagogik jarayonni tizimli qurish va omillar integratsiyasini ta'minlash o'qituvchining professional samaradorligini oshiruvchi asosiy shartlardan biridir.

Integrativ-metodik yondashuvning asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

**Birinchidan**, u o'qituvchining kasbiy faoliyatini faqat "dars o'tish" jarayoni sifatida emas, balki pedagogik madaniyatni ifodalovchi kasbiy tizim sifatida talqin qiladi. Bu tizimda didaktik maqsad, tarbiyaviy vazifa, kommunikativ ta'sir va metodik yechimlar o'zaro uyg'unlashadi.

**Ikkinchidan**, integrativ yondashuv o'qituvchining metodik qarorlarini faqat ilmiy asos bilan emas, balki qadriyatli va etik me'yorlar bilan ham belgilaydi. Bu holatda pedagogik madaniyat o'qituvchining kasbiy pozitsiyasini mustahkamlovchi asosiy mezonga aylanadi.

**Uchinchidan**, integrativ yondashuv reflektiv faoliyatni kuchaytiradi. O'qituvchi o'z darslarini tahlil qiladi, metodik muammolarni aniqlaydi, kommunikativ xatolarni tuzatadi va o'z pedagogik uslubini takomillashtiradi. D.Schönning reflektiv amaliyot nazariyasida ham professional rivojlanish refleksiya orqali amalga oshishi alohida ta'kidlanadi.

Shunday qilib, integrativ-metodik yondashuv bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik madaniyatini rivojlantirishda eng samarali nazariy asoslardan biri sifatida namoyon bo'ladi. U pedagogik madaniyatni kompleks va tizimli rivojlantirish imkonini yaratadi.

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik madaniyatini rivojlantirish masalasi fragmentar metodik tavsiyalar darajasida emas, balki yaxlit nazariy tizim sifatida qayta ko'rib chiqilishini talab etadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, alohida yondashuvlarning qo'llanishi pedagogik madaniyatni kompleks rivojlantirish uchun yetarli emas. Chunki pedagogik madaniyat ko'p qatlamli, integrativ va dinamik hodisa bo'lib, u shaxsiy qadriyatlar, kasbiy kompetensiyalar, kommunikativ xulq va reflektiv ong birligida shakllanadi [5].

Shu bois metodik yondashuvlarni oddiy ro'yxat sifatida emas, balki ularni ichki mantiqiy bog'liqlikda tizimlashtirish va ularning sintezidan kelib chiqadigan mualliflik konsepsiyasini ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi.

Mazkur konsepsiyaning nazariy tayanchi quyidagi metodologik g'oyalarga asoslanadi:

- pedagogik madaniyatni kasbiy identiklikning tarkibiy yadrosi sifatida talqin etish;
- metodik yondashuvlarni funksional vazifasiga ko'ra guruhlash;
- ularni bosqichma-bosqich rivojlanish mexanizmi bilan integratsiyalash;
- didaktik jarayonni shaxsiy-aksiologik transformatsiya maydoni sifatida ko'rish.

**Metodik yondashuvlarni tizimlashtirish** jarayoni tasodifiy yoki mexanik birlashtirish emas, balki ichki ilmiy mantiqqa asoslangan, konseptual izchillikni talab etadigan murakkab nazariy faoliyatdir. Pedagogik madaniyat ko'p qatlamli va ko'p omilli hodisa bo'lganligi sababli, uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar ham muayyan tartib, funksional aniqlik va o'zaro uyg'unlik asosida tizimlashtirilishi zarur. Shu nuqtai nazardan, metodik yondashuvlarni bir butun tizimga keltirish uch bosqichli ilmiy mantiqqa tayanadi: funksional differensiasiya, strukturaviy integratsiya va dinamik uyg'unlik. Avvalo, funksional differensiasiya bosqichida har bir metodik yondashuvning pedagogik madaniyat tuzilmasidagi o'rni aniqlanadi. Bu bosqichda yondashuvlar o'z vazifasiga ko'ra farqlanadi va ularning qaysi komponentni rivojlantirishga xizmat qilishi belgilab olinadi. Masalan, aksiologik yondashuv pedagogik madaniyatning qadriyatli-motivatsion qatlamini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, unda bo'lajak o'qituvchi kasbga nisbatan mas'uliyat, pedagogik etika, insonparvarlik va ijtimoiy burch tushunchalarini ichki e'tiqod darajasida qabul qiladi. Bu yondashuvsiz pedagogik faoliyat tashqi ko'nikmalar yig'indisiga aylanib qolishi mumkin, chunki qadriyat omili kasbiy barqarorlikning ichki tayanchidir [6].

**Kompetensiyaviy yondashuv** esa pedagogik madaniyatning kognitiv-metodik qatlamini shakllantiradi. Unda nazariy bilimlar, metodik qobiliyatlar, darsni loyihalash va baholash ko'nikmalari tizimli ravishda egallanadi. Bu yondashuv o'qituvchining kasbiy salohiyatini aniq natijalar bilan o'lchash imkonini beradi. Kommunikativ yondashuv pedagogik madaniyatning operatsion-faoliyat qismiga xizmat qiladi. Ayniqsa ingliz tili o'qituvchisi uchun muloqot, nutqiy interaktivlik, sinfdagi psixologik muhitni boshqarish qobiliyati markaziy o'rinda turadi. Refleksiv yondashuv esa pedagogik madaniyatning o'zini takomillashtirish mexanizmini ishga tushiradi. U o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va yangi strategiyalar ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantiradi. Nihoyat, raqamli-didaktik yondashuv zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish orqali pedagogik madaniyatning innovatsion qatlamini boyitadi.

**Funksional differensiasiya** natijasida har bir yondashuvning vazifasi aniqlanadi, biroq bu ularning ajralgan holda qo'llanishini anglatmaydi. Keyingi bosqich - strukturaviy integratsiya - aynan shu yondashuvlarni yagona tizimga birlashtirishni nazarda tutadi. Pedagogik madaniyat tarkibiy jihatdan o'zaro bog'liq elementlardan iborat bo'lgani kabi, metodik yondashuvlar ham kesishuvchi maydonlarda faoliyat yuritadi. Masalan, kommunikativ yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra qadriyatlarga tayanadi: agar o'qituvchi

insonparvarlik va hurmat tamoyillarini ichki qadriyat sifatida qabul qilmagan bo'lsa, muloqot jarayoni samimiy va samarali kechmaydi. Xuddi shuningdek, reflektiv yondashuv kompetensiyaviy asos bo'lmasa, yuzaki o'zini baholash bilan cheklanib qoladi. Demak, strukturaviy integratsiya bosqichida yondashuvlar bir-birini to'ldiruvchi, o'zaro ta'sir qiluvchi elementlar sifatida qaraladi. Bu bosqich pedagogik madaniyatni ko'p blokli tizim sifatida talqin etishni talab qiladi. Qadriyatli-motivatsion, kognitiv-metodik, operatsion-kommunikativ va reflektiv-innovatsion bloklar o'zaro bog'langan holda ishlaydi. Yondashuvlarni integratsiyalash orqali pedagogik madaniyatni rivojlantirish jarayoni izchil va barqaror tus oladi. Natijada metodik yondashuvlar tasnifi nazariy ro'yxat darajasida emas, balki real pedagogik jarayonni boshqaruvchi mexanizmga aylanadi [7].

Uchinchi bosqich - dinamik uyg'unlik -metodik tizimning vaqt va tajriba omili bilan boyishini anglatadi. Pedagogik madaniyat rivoji statik emas; u ta'lim jarayonidagi har bir tajriba, har bir refleksiya, har bir innovatsion tajriba bilan o'zgaradi. Shuning uchun metodik yondashuvlar ham qat'iy qolip sifatida emas, balki moslashuvchan va o'zgaruvchan mexanizm sifatida ishlashi lozim. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi dastlab aksiologik anglash bosqichida kasbiy qadriyatlarni o'zlashtiradi, keyinchalik kompetensiyaviy va kommunikativ faoliyat orqali ularni amaliyotga tatbiq etadi, so'ng reflektiv tahlil orqali o'z faoliyatini takomillashtiradi. Bu jarayonda raqamli vositalar yangi imkoniyatlar yaratadi va pedagogik madaniyatni zamonaviy kontekstga moslashtiradi.

**Xulosa.** Dinamik uyg'unlik metodik yondashuvlarning bir marotabalik emas, balki uzluksiz rivojlanish jarayonida qo'llanishini ta'minlaydi. Har bir yangi tajriba avvalgi bilim va qadriyatlarni qayta ko'rib chiqish imkonini beradi. Natijada pedagogik madaniyat o'sish, boyish va transformatsiya jarayonini boshdan kechiradi. Bu esa bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda qat'iy sxemalar emas, balki rivojlanishga ochiq, reflektiv va innovatsion muhit yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, metodik yondashuvlarni tizimlashtirishning uch bosqichli ilmiy mantiqi pedagogik madaniyatni rivojlantirish jarayonini nazariy asoslash, ichki uyg'unlikni ta'minlash va amaliy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кузьмина Н.В. *Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения.* – Москва: Высшая школа, 1990. – С. 34–39.
2. Harmer J. *How to Teach English.* – Harlow: Pearson Education Limited, 2007.
3. Кузьмина Н.В. *Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения.* – Москва: Высшая школа, 1990. – С. 28–35.
4. Azizxo'jayeva N.N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.* – Toshkent: O'qituvchi, 2006
5. Tolipov O'Q., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari.* – Toshkent: Fan, 2006
6. Musurmonova O. *Pedagogik kompetensiya va kasbiy rivojlanish.* – Toshkent: Tafakkur, 2018.
7. Hargreaves A. *Teaching in the Knowledge Society: Education in the Age of Insecurity.* – New York: Teachers College Press, 2003.